



**TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI**



*2024- yil yanvar-sentabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi:
(71) 203-88-20(21)*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Toshkent shahrida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **18 694,1** mln AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **1 495,8** mln AQSH dollariga yoki **8,7 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-sentabr 2024 y., mln AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **18 694,1** +8,7 %

(2023- y.: 17 198,3)



Saldo

2024- y.: **-10 742,9** (2023- y.: -9 860,7)




Eksport

2024- y.: **3 975,6** +8,4 %

(2023- y.: 3 668,8)


TSA'dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **14 718,5** +8,8 %

(2023- y.: 13 529,5)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 3 975,6 mln AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 8,4 % ga ko‘paydi) va import hajmi 14 718,5 mln AQSH dollariga (8,8 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -10 742,9 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-sentabr oylari, mln AQSH dollari)

Rossiya TSA – 4 639,8 Eksport: 815,0 Import: 3 824,8  24,8 %	XXR TSA – 3 820,3 Eksport: 563,9 Import: 3 256,4  20,4 %	Qozog‘iston TSA – 1 336,5 Eksport: 295,7 Import: 1 040,8  7,1 %	Turkiya TSA – 950,1 Eksport: 290,4 Import: 659,7  5,1 %	Turkmaniston TSA – 699,4 Eksport: 28,4 Import: 671,0  3,7 %
Germaniya TSA – 501,0 Eksport: 28,3 Import: 472,7  2,7 %	AQSH TSA – 419,3 Eksport: 108,7 Import: 310,6  2,2 %	BAA TSA – 367,9 Eksport: 111,4 Import: 256,5  2,0 %	Hindiston TSA – 341,6 Eksport: 13,8 Import: 327,8  1,8 %	Afg‘oniston TSA – 321,3 Eksport: 312,2 Import: 9,1  1,7 %

Toshkent shahri jahonning 179 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (24,8 %), XXRda (20,4 %), Qozog‘istonda (7,1 %), Turkiyada (5,1 %) va Turkmanistonda (3,7 %) qayd etilgan.



TOSHKENT SHAHRINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)


Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	3 252,3	3 540,9	4 639,8
<i>Eksport</i>	715,2	766,8	815,0
<i>Import</i>	2 537,1	2 774,1	3 824,8
XXR	3 025,8	4 233,9	3 820,3
<i>Eksport</i>	614,9	577,9	563,9
<i>Import</i>	2 410,9	3 656,0	3 256,4
Qozog'iston	1 255,9	1 228,5	1 336,5
<i>Eksport</i>	276,5	307,9	295,7
<i>Import</i>	979,4	920,6	1 040,8
Turkiya	920,3	1 071,5	950,1
<i>Eksport</i>	248,9	298,0	290,4
<i>Import</i>	671,4	773,5	659,7
Turkmaniston	474,2	688,1	699,4
<i>Eksport</i>	74,6	85,4	28,4
<i>Import</i>	399,6	602,7	671,0
Germaniya	534,0	438,6	501,0
<i>Eksport</i>	35,4	25,9	28,3
<i>Import</i>	498,6	412,7	472,7
AQSH	253,7	249,8	419,3
<i>Eksport</i>	40,2	67,3	108,7
<i>Import</i>	213,5	182,5	310,6
BAA	288,4	349,8	367,9
<i>Eksport</i>	67,4	135,3	111,4
<i>Import</i>	221,0	214,5	256,5
Hindiston	324,2	290,6	341,6
<i>Eksport</i>	11,8	14,5	13,8
<i>Import</i>	312,4	276,1	327,8
Afg'oniston	246,6	275,4	321,3
<i>Eksport</i>	245,0	272,8	312,2
<i>Import</i>	1,6	2,6	9,1



Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Litva	171,9	310,1	302,0
<i>Eksport</i>	27,7	41,3	116,7
<i>Import</i>	144,2	268,8	185,3
Belarus	206,4	231,2	269,8
<i>Eksport</i>	35,9	31,7	43,5
<i>Import</i>	170,5	199,5	226,3
Koreya Respublikasi	316,7	288,0	267,7
<i>Eksport</i>	14,7	15,1	17,7
<i>Import</i>	302,0	272,9	250,0
Chexiya	75,9	163,0	252,2
<i>Eksport</i>	15,7	34,4	40,2
<i>Import</i>	60,2	128,6	212,0
Fransiya	134,0	312,6	239,8
<i>Eksport</i>	5,2	1,4	8,2
<i>Import</i>	128,8	311,2	231,6
Tojikiston	217,5	223,2	237,0
<i>Eksport</i>	166,0	189,3	174,7
<i>Import</i>	51,5	33,9	62,3
Buyuk Britaniya	120,9	225,9	230,1
<i>Eksport</i>	58,6	96,6	114,6
<i>Import</i>	62,3	129,3	115,5
Qirg'iz Respublikasi	184,2	178,9	194,2
<i>Eksport</i>	157,8	135,0	150,9
<i>Import</i>	26,4	43,9	43,3
Gruziya	90,0	111,3	187,0
<i>Eksport</i>	23,3	27,7	32,7
<i>Import</i>	66,7	83,6	154,3
Yaponiya	62,3	53,3	173,8
<i>Eksport</i>	9,4	5,2	7,6
<i>Import</i>	52,9	48,1	166,2




TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar –sentabr mln AQSH doll.)*



Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 16,5 % ulush bilan 3 077,1 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchtepa tumani 2,8 % ulush bilan 532,4 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,1 % ga ko'paydi.




Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAdagi ulushi 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,1 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 59,1 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra, 7 652,5 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 1 664,5 mln AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 5 988,0 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




TOSHKENT SHAHRINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)

Rossiya – 24,8		Qozog'iston – 7,1	
Turkmaniston – 3,7		Belarus – 1,4	
Tojikiston – 1,3		Qirg'iz Respublikasi – 1,0	
Ozarbayjon – 0,5		Ukraina – 0,5	
Armaniston – 0,1		Moldova – 0,01	



Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (24,8 %), Qozog'iston (7,1 %) hamda Turkmaniston (3,7 %) davlatlari bilan qayd etildi.

TOSHKENT SHAHRINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-sentabr, mln AQSH dollari)



Toshkent shahrining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 6 451,6 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 1 313,3 mln AQSH dollari, import hajmi esa 5 138,3 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, Toshkent shahrining eksportyorlar soni 2 048 taga yetdi va ular tomonidan 3 975,6 mln AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 8,4 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-sentabr ulushi % da)



Toshkent shahrida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	3 668,8	3 975,6	109,7	108,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	169,7	137,5	135,3	81,0	4,6	3,5
Ichimliklar va tamaki	60,3	72,6	93,9	120,4	1,6	1,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	41,9	38,6	70,2	92,0	1,2	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	124,8	198,8	80,5	159,2	3,4	5,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,5	1,1	24,6	216,4	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	312,9	259,4	96,7	82,9	8,5	6,5
Sanoat tovarlari	644,8	702,5	98,4	109,0	17,6	17,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	365,6	360,1	171,9	98,5	10,0	9,1
Turli xil tayyor buyumlar	162,0	141,1	147,6	87,1	4,4	3,5
Boshqa tovarlar	32,6	33,5	0,0	102,7	0,9	0,8
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	1 753,7	2 030,4	107,2	115,8	47,8	51,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 48,9 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (17,7 %), mashinalar va transport asbob-uskunolari (9,1 %) va kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 % ga kamaygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln
AQSH dollari, ulushi)

■ MDH davlatlari ■ Boshqa davlatlar



2024- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Afg'oniston, Qozog'iston, Turkiya, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 65,5 % ni tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-sentabr, % da)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-sentabr)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rne	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	766,8	815,0	107,2	106,3	1	1
XXR	577,9	563,9	94,0	97,6	2	2
Afg'oniston	272,8	312,2	111,3	114,4	5	3
Qozog'iston	307,9	295,7	111,4	96,0	3	4
Turkiya	298,0	290,4	119,7	97,4	4	5
Tojikiston	189,3	174,7	114,0	92,3	6	6
Qirg'iz Respublikasi	135,0	150,9	85,6	111,8	8	7
Litva	41,3	116,7	149,1	282,6	15	8
Buyuk Britaniya	96,6	114,6	164,8	118,6	9	9
BAA	135,3	111,4	200,7	82,3	7	10
AQSH	67,3	108,7	167,4	161,5	12	11
Ozarbajjon	40,5	64,6	76,4	159,5	16	12
Kanada	27,9	45,1	169,1	161,6	20	13
Latviya	45,9	43,5	118,9	94,8	14	14
Belarus	31,7	43,5	88,3	137,2	19	15
Chexiya	34,4	40,2	219,1	116,9	18	16
Gruziya	27,7	32,7	118,9	118,1	21	17
Turkmaniston	85,4	28,4	114,5	33,3	11	18
Germaniya	25,9	28,3	73,2	109,3	23	19
Polsha	14,8	28,2	44,3	190,5	27	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)



Toshkent shahar eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 23,8 % bilan 947,5 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bektemir tumani 1,3 % bilan 49,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi.




TOSHKENT SHAHRINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 14 718,5 mln AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,8 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (28,0 %), sanoat tovarlari (15,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (13,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 189,0 mln AQSH dollariga ko'paydi va 14 718,5 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1 181,8 mln AQSH dollariga yetdi.



TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	13 529,5	14 718,5	124,9	108,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 232,1	1 297,8	110,8	105,3	9,1	8,8
Ichimliklar va tamaki	134,4	157,3	140,2	117,1	1,0	1,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	199,0	182,2	92,6	91,5	1,5	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 145,8	2 099,1	170,1	183,2	8,5	14,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	169,8	128,3	127,9	75,6	1,2	0,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2 033,4	2 028,6	104,3	99,8	15,0	13,8
Sanoat tovarlari	2 338,1	2 257,1	107,5	96,5	17,3	15,3
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	4 002,6	4 123,5	126,8	103,0	29,6	28,0
Turli xil tayyor buyumlar	672,3	731,1	111,1	108,7	5,0	5,0
Boshqa tovarlar	704,3	531,7	0,0	75,5	5,2	3,6
Xizmatlar	897,7	1 181,8	125,7	131,6	6,6	8,0

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-sentabr oylariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 40,7 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga ko'paydi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida 178 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkmaniston, Turkiya, Germaniya va Hindiston) jami importning 69,7 % ni tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHAR IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-sentabr, % da)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-sentabr)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	2 774,1	3 824,8	109,3	137,9	2	1
XXR	3 656,0	3 256,4	151,6	89,1	1	2
Qozog'iston	920,6	1 040,8	94,0	113,1	3	3
Turkmaniston	602,7	671,0	150,8	111,3	5	4
Turkiya	773,5	659,7	115,2	85,3	4	5
Germaniya	412,7	472,7	82,8	114,5	6	6
Hindiston	276,1	327,8	88,4	118,7	8	7
AQSH	182,5	310,6	85,5	170,2	14	8
BAA	214,5	256,5	97,1	119,6	11	9
Koreya Respublikasi	272,9	250,0	90,4	91,6	9	10
Fransiya	311,2	231,6	241,6	74,4	7	11
Belarus	199,5	226,3	117,0	113,4	12	12
Chexiya	128,6	212,0	213,6	164,9	19	13
Litva	268,8	185,3	186,4	68,9	10	14
Yaponiya	48,1	166,2	90,9	345,5	34	15
Gruziya	83,6	154,3	125,3	184,6	24	16
Italiya	142,1	154,2	115,3	108,5	15	17
Irlandiya	83,2	132,7	152,1	159,5	25	18
Polsha	133,9	132,2	197,8	98,7	16	19
Avstriya	70,5	131,7	160,6	186,8	28	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)



Toshkent shahrining importi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 14,5 % bilan 2 129,6 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchtepa tumani 2,9 % bilan 434,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi.